

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.N. NORCHAEV, D.S. UMIROVA

EKSKURSIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Resblikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – IQTISODIYOT– 2019

UO`K: 338.489(07)575.1

KBK:

Norchayev A.N., Umirova D.S. Ekskursiya xizmatini tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. - 202 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada bugungi kunda bozorning ajralmas qismi bo‘lgan turizm hamda va mehmonxona hamda turizmning xizmat ko‘rsatish kompleksining asosiy elementi bo‘lgan ekskursiya xizmatlari, uning xususiyatlari, sayyoxlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish yo‘llari, ekskursiya tashkil etuvchi Gid-tarjimon funksiyalari, uning turistik korxonada o‘rni va roli batavsil yoritilgan. Qo‘llanmada O‘zbekiston bo‘yicha mahalliy turistik marshrutlarni ishlab chiqish va shakllantirish usullari taklif etilgan.

Учебное пособие посвящено развитию туризма являющийся неотъемлемой частью рынка, и экскурсионным услугам как основной части гостиничных услуг. В пособии рассматриваются особенности экскурсионных услуг, направления совершенствования качества туристских услуг, основные функции Гида-переводчика, его роль в какой деятельности а также предлагаются методы разработки и формирования местных туристских маршрутов по предлагаемым зонам Узбекистана.

This textbook is intended to the development of tourism, which is the main part of the market of excursions and hotel services. In the textbook viewed specifics of excursions services, directions of the improvement of the quality of tourist services, main functions of guide, his role at the tourism activity, and suggested the methods of the development and formation of local tourist routes.

Такризчилар:

Xudayberganov D.T.

-UrDU“Turizm va iqtisodiyot” fakulteti, “Turizm” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

Sayfutdinov Sh.S.

-TDIU “Turizm va servis” kafedrasini dotsenti.

ISBN 0000000000

UO`K: 338.489(07)575.1

KBK:

© «IQTISODIYOT», 2019.
© Norchayev A.N., Umirova D.S., 2019.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida va ayniqsa bozorga o'tish davrida turizm iqtisodiyotning eng dinamik sohalaridan biri hisoblanadi. Uning tez sur'atlarda o'sishi, katta hajmdagi valyuta tushumlari iqtisodiyotning turli sohalariga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu esa turizm sanoati shakllanishiga imkon beradi.

O'zbekistonda mamlakatning boshqa yo'nalishlari kabi iqtisodiyot yo'nalishi ham katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Iqtisodiyotda turizm sektori ulushi yildan yilga ortib bomoqda va bundan tashqari, turizmning tarkibiy qismlarida faoliyat yurituvchilar soni ko'paymoqda. Mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga egadiyor. Yurtimizning so'lim tabiati, tarixiy obidalari, an'analari, madaniyati, matolari, arxitekturasi, hunarmandlari tomonidan qilingan ishlariga sayyohlar e'tibori kun sayin ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston noyob bir mamlakat bo'lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o'z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar va ulug'vor hamda betakror arxitektura namunalari mavjud. Mamlakatning so'lim qo'riqxonalari va milliy bog'lari uning boy va rang-barang tabiati durdonalaridir.

Shunga qaramay, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda.

Biz bunday muammalarni tezroq hal etmog‘imiz lozim. Chunki zamon juda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bugungi qilingan yangilik inovatsiya ertaga eskirib qolishi hech gap emas. Bularni barchasini hisobga olgan holda ish qilishimiz lozim.

Turizm sohasining yanada tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushini ko‘paytirish, turistik xizmatlar sifatini oshirilishini ta‘minlash “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”¹da ham ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Bundan ko‘zlanayotgan asosiy maqsad mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish, chet ellik turistlarni ko‘proq jalb qilish, mamlakat aholisini shu sohada ham ish bilan ta‘minlash va aholini turmush darajasini yanada yaxshilashdan iboratdir. Bugungi kunda turizm sohasini yanada izchil va tezkor ravishda rivojlantirish maqsadida respublikamizda juda ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

“Ekskursiya xizmatini tashkil qilish” fani o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan***, turizm mahsulotida ekskursiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

- ***ikkinchidan***, ekskursiya xizmatiga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilish yo‘llarini va usullarini bilish;

- ***uchinchidan***, shahar ichida va shahar tashqarisida ekskursiyani tashkil etish yo‘llarini;

- ***to‘rtinchidan***, O‘zbekistonda kelgusida ekskursiya sohasining rivojlanish istiqbollari bo‘yicha turli holatlarni tahlil qilish va boshqalar.

Ekskursiya xizmatlari – turistlarga xizmat ko‘rsatish kompleksining ajralmas qismidir. Ekskursiya xizmati faoliyatining asosi rivojlanayotgan davlat siyosatiga xos milliy mehmondo‘stlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Turistik soha shu mamlakat milliy qonunlari va qoidalari asosida boshqariladi. Bu erda xizmat ko‘rsatuvchilar va xizmat ko‘ruvchilar o‘rtasida ko‘p rejali aloqalar paydo bo‘ladi. Bu quyidagi faoliyatlarni: so‘rov, tashviqot, tashkiliy, oldi-sotdi, sport va ba‘zi xollarda operativ nazoratni o‘z ichiga oladi.

¹Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони Халқ сўзи 2-бет

1-BOB.“EKSKURSIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH” FANIGA KIRISH

1.1. “Ekskursiya xizmatini tashkil qilish” fanining maqsadi va vazifalari

1.2. Ekskursiya xizmatining mazmuni va mohiyati

1.3. Ekskursiya xizmati muloqot shakli sifatida

1.4. Ekskursiya xizmati pedagogik jarayon sifatida

1.1. “Ekskursiya xizmatini tashkil qilish” fanining maqsadi va vazifalari

Turizm iqtisodiy sohalar ichida daromad keltirishi bo‘yicha yetakchi sohalardan biridir. Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. Turizmning asosiy xizmatlaridan biri ekskursiya xizmatlari hisoblanadi. Mamlakatga tashrif buyurgan turist eng avvalo uning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, tabiat resurslari bilan tanishishni, tomosha qilishni xohlaydi. Ekskursiya o‘zining ko‘rgazmaliligi, sarmazmunligi, daromadliligi, hissiyotliligi bilan insonlarning ruhiy qiyofasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

«Ekskursiya xizmatini tashkil qilish» fani turizm sohasida ta’lim olayotgan talabalar uchun mutaxassislik fani sifatida ahamiyatlidir. Ushbu kursdan talabalar turizm sohasida ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil etish texnika va texnologiyasi haqida zaruriy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

«Ekskursiya xizmatini tashkil qilish» fanini o‘qitishdan maqsad - talabalarni mamlakatimizning boy tarixiy merosi, ekologik-rekreatsioon maskanlari, ishlab-chiqarish obyektlari, ziyoratgohlarda sifatli, xavfsiz ekskursiya xizmatlarini tashkil etish hamda, ulardan turizm sohasida samarali foydalanish bo‘yicha bilimlar berishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun fanning oldida quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- ✓ Ekskursiya xizmatining mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- ✓ Ekskursiya xizmatining funksiyasi, xususiyatlari va ekskursiya xizmatini tasniflashni o‘rgatish;
- ✓ Ekskursiya xizmati rahbari-gidga qo‘yilgan talablarni o‘rgatish;
- ✓ Gid ishini tashkil etish va boshqarish;